



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

2023- yil 24 mart

BUYRUQ № 13

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF- 269- son Farmoni va 2020- yil 3- avgustda "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash, rasmiy statistika sohasida BMTning "Rasmiy statistikada sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari bo'yicha qo'llanma"si (NQAF) talablari asosida sifatni boshqarish ishlarini tizimli tashkil etish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining (keyingi o'rinlarda – Statistika agentligi) sifat sohasidagi siyosati (keyingi o'rinlarda – Sifat siyosati) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, Statistika agentligi tizimida sifatni boshqarish va baholash tizimlarini, sifatni ta'minlashning milliy asosiy prinsiplarini joriy etish va statistika faoliyatining samaradorligini yanada oshirish ishlari Sifat siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D.Zakirov) Statistika agentligining tegishli bo'linmalari bilan birgalikda:

sifat mezonlarini ta'minlanganligini ifodalovchi ISO sertifikatini olish uchun zarur tegishli hujjatlarni ishlab chiqishda Sifat siyosati talablari e'tiborga olinishini;

Statistika agentligi tizimida sifatni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni BMTning NQAF qo'llanmasi talablariga uyg'unlashgan holda amalga oshirilishini;

Sifat siyosatini ma'qullash uchun Statistika kengashiga kiritilishini ta'minlasin.

3. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (F. Berdibayev) mazkur buyruqni Statistika agentligi markaziy apparati bo'linmalariga tanishtirilishini va hududiy statistika organlari e'tiboriga yetkazilishini tashkil etsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Direktor

B. Begalov